

KUTUBXONAGA KITOB SOVG'A



Qo'shtepa tumani axborot-kutubxona markazi kitob fondini boyitish maqsadida xomiy tashkilotlar viloyat Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, viloyat tovar xom ashyosi birjasi, viloyat Bozorlar uyushmasi, Milliy bank viloyat filiali tomonidan 500 ga yaqin badiiy adabiyotlar sovg'a qilindi.



Bugungi xomiylarning kitob sovg'asi kutubxonamiz kitob fondini yanada boyitdi. Bu sovg'a nafaqat bizni, balki barcha kitobxonlarimizni sevintirdi, — deydi Qo'shtepa tumani axborot-kutubxona markazi direktori G'olibjon Mo'minov.

Darhaqiqat, adabiyot, badiiy asarlar komillik sari boshlovchi ma'naviy sarchashmadir. Shu o'rinda xomiylarning sovg'asi kitobxonlar uchun ajoyib sovg'a bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#),

2022-05-24 20:43:14